

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ISHLAB CHIQRISHDAGI BAXTSIZ HODISALAR VA KASB KASALLIKLARI NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARARNI TO‘LASH

Yarashova Gulnoza Olim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

gulnozayarashova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi “ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar”, “kasb kasalliklari”, “baxtsiz hodisalar natijasidagi zarar va uni to‘lash”, “mehnat muhofazasi bilan bog‘liq masalalar” kabi tushunchalarni hamda ishlab chiqarishdagi turli baxtsiz hodisalarni amaliy jihatdan o‘rganish va masalaga samarali yechim topish kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, mehnat muhofazasi yuzasidan ishlarni tashkil qilish, mavjud muammolarni hal etishda xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda milliy mehnat qonunchiligimiz bilan yechim topishda va kelgusidagi mehnat faoliyati bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olishning yanada samarali tajribalarga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat muhofazasi, mehnat jarayonidagi baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari, kompetentsiya, bir yo‘la to‘lanadigan nafaqalar, maxsus tekshiruvlar

Kirish:Sanoat korxonalarida xavfsizlik qoidalari va texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong‘in xavfsizligi qoidalari, me‘yor va talablariga rioya qilmaslik xodimlarning jarohatlanishiga, zaharlanishga va kasb kasalliklari kabi oqibatlarga olib kelishi xavfi yuqori bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ishlab chiqarish korxonalarida yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa har tomonlama tekshirilishi va hisobga olinishi muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining kelib chiqish sabab va ularning turlariga qarab, ular natijasidagi zarar va uning turlarini farqlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘isida”gi Qonunining 34-moddasiga ko‘ra, xodimning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda zararining o‘rnini qoplash bo‘yicha tegishli to‘lovlarni to‘lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasida bo‘ladi. Zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi talablar ham unga taqdim etilishi ta’kidlangan. Shuningdek ushbu moddaning 2 va 3-bandlarida xodimning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda tegishli to‘lovlar ularni jabrlanuvchiga to‘lash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda kapitallashtirilishi, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki mavjud bo‘lmaganligi yoki yetarli bo‘lmaganligi sababli to‘lovlarni kapitallashtirish mumkin bo‘lmagan hollarda tegishli summalar jabrlanuvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan to‘lanishi belgilangan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari kelib chiqish sabablari natijasida zararni aniqlash mumkin. Bularga:

1. Kimyoviy omillar ta’siri ostida yuzaga keladigan kasalliklar mavjud bo‘lib, ularga: dermatitlar, toksik gepatit, toksik kamqonlik, o‘tkir va surunkali zaxarlanish;
2. Chang ta’sirida yuzaga keladigan kasalliklar: karbokonioz, pnevmokonioz, silikoz, metallokonioz, biosinoz, changdan surunkali bronxit;

3. Fizik omillar natijasida yuzaga keladigan kasalliklar: qo‘l angionevrozi, dekompression kasallik, o‘tkir gipoksiya, nur kasalligi, eshitishning pasayishi, teri kuyishi, katarakta, elektrooftalmiya;
4. O‘ta zo‘riqish oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar: nevrалgiya, nevritlar, bo‘yin-ko‘krak radikuliti, bo‘yin-yelka pleksiti, qo‘l barmoqlari spazmi, miofassitlar, deformatsiyalanuvchi artrozlar, radikulonevrit;
5. Biologik omillar ta’siri ostida yuzaga keladigan kasalliklar: brutsellyoz, sibir yarasi, tuberkulyoz, kandidomikoz;
6. Allergik omillar ta’siri ostida yuzaga keladigan kasalliklar: laringit, rinosinusit, konyuktivit, rinit, faringit, dermatit, ekzema, bronxial astma;
7. Kanserojen moddalar ta’siri ostida yuzaga keladigan, yomon sifatli o’sma, onkologik kasalliklar: leykoz, teri o’smasi, oshqozon o’smasi, og‘iz bo’shlig‘i, nafas a’zolari a’zolari, jigar va suyak o’smalari;¹

Har qanday ish joyidagi mehnat sharoitlari ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasiga va ish o‘rinlarda yaratiladigan sanitar-gigiyena sharoitlariga bog‘liq. Jismoniy mehnat jarayonida, asosan, odam mushaklariga, aqliy mehnatda esa asabiy-ruhiy tomondan zo‘riqish holatlari kuzatiladi. Texnika rivojlanib, ishlab chiqarish jarayonlari mukammalashgan sari jismoniy mehnat o‘rnini aqliy mehnat egallay boshladi va natijada aqliy mehnat jarayonlarini ko‘proq o‘rganishga ehtiyoj tug‘ildi. “Ishlab chiqarish jarayonining sanitariya-gigiyena sharoitlari deganda ishlovchi kishining atrofidagi butun vaziyat, jumladan, unga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan kimyoviy moddalar, chang, shovqin, titrash, ionlashtiruvchi nurlar, shuningdek, havo harorati, namligi, harakatning tezligi, xonalar yoki boshqa ish joyining yoritilishi, mikroorganizmlar ko‘p-kamligi va boshqa(lar) tushuniladi”.² Ishlab chiqarish jarayonida, korxonalar va tashkilotlarda xodimning sog‘lig‘ini saqlashga tegishli choralar ko‘rilmasa, yuqorida sanab o‘tilgan omillarning har biri yoki bir nechta ishchi-xodimning salomatligiga ziyon yetkazib, turli darajadagi jarohatlanishlar, kasallanishlar va kasb kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, “Mehnat gigiyenasi” fanining o‘rgatilishi muhim sanaladi. Ushbu fanning asosiy vazifasi kishilar sog‘lig‘i uchun xavfli va zararli bo‘lgan omillarning salbiy ta’sirini oldini olishga qaratilgan. Ishlab chiqarishdagi zararli omillar - ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni natijasida yuzaga keladigan zararli moddalar va muhit omillari majmuidan iborat bo‘lib, ularning ta’siri natijasida xodimning ishlash qobiliyatini pasayishga, vaqtinchak yoki doimiy nogironlikga, kasb kasalliklarini kelib chiqishiga, turli yuqumli va boshqa kasalliklar yoki jarohatlanishlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladigan holatlardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, inson o‘z faoliyati davomida turli xil xavfli va zararli omillar muhiti ta’sirida, kutilmagan favqulodda vaziyatlar va boshqa ijtimoiy sabablar oqibatida baxtsiz hodisalarga duch keladi. Xavfning turi va ta’sir darajasi yoki baxtsiz hodisaning sababiga bog‘liq holda jarohatlanish turi va darajasi ham turlicha bo‘lishi mumkin.

Aksariyat hollarda jarohatlanish, zaharlanish va shikastlanishlar kutilmaganda yuz beradi. Shuning uchun jarohatlangan kishiga zudlik bilan dastlabki yordam ko‘rsatish o‘ta muhimdir. Buning uchun dastlabki yordamni ko‘rsatayotgan kishining harakatlari tez, aniq, to‘g‘ri va o‘ylab amalga oshirilishi kerak.

Ishlab chiqarish jarayonida ishchi-xodimlar o‘zlarining faoliyatlari davomida turli baxtsiz hodisalarga uchrashlari va turlicha jarohatlar olishlari mumkin, ya’ni:

¹ <https://azkurs.org/kasbiy-kasalliklarni-va-ishlab-chiqarishdagi-jarohatlarni-teks.html>

² О.Д.Рахимов, У.Иулдошев. “Мехнатни мухофаза қилиш.” Ўзбекистан Республикаси Олий ва урта махсус таълим вазирлиги томонидан нашрга тавсия этилган. - Тошкент, 2002.

- > predmetlarning mexanik ta'sir natijasida qon tomirlarini kesilib ketishi;
- > issiqlik, kimyoviy yoki elektr manbalaridan jarohatlanish natijasida terining kuyishi, mushaklar tortilib qolishi, xushdan ketib qolish yoki yurakning to'xtashi;
- > zaharli chang va gazlar bilan zaharlanish natijasida nafas olish va ichak-oshqozon a'zolarini zaharlanishi;
- > kutilmagan jismoniy zarb yoki zo'riqishdan suyaklarda sinish va chiqish sodir bo'lishi va umurtqa pog'onasining zarar ko'rishi;
- > suvga cho'kkanda xushdan ketib qolish, nafas olish yo'llarining to'sib qolinishi va qorin bo'shlig'ida suyuqlikning yigilib qolishi;
- > quturgan hayvonlarni tishlashi natijasida ruhiy holatini o'zgarishi yoki turli yaralarni paydo boiishi;
- > sudraluvchi va boshqa zaharli hasharotlar chaqishi natijasida kishilarni bo'g'ilib qolishi, tomir mushaklarining tortilishi yoki o'lim holati;
- > issiqlik yoki boshqa kimyoviy moddalar ta'siri natijasida teri ustki qatlamning kuyib qolish holati;
- > sovuq muhit ta'siri natijasida, organizmning ochiq joylarini sovuq urib qolishi va boshqa shu turlardagi jarohatlanishlar sodir bo'lishi.

Ammo, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari haqidagi ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga odatda bir xil emas. Ko'pgina hollarda statistik manbalardan batafsil va aniq ma'lumot olish qiyinligi sanoat va korxonalaridagi baxtsiz hodisalar to'liq yoki aniq bo'lmagan tavsifiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ko'pincha ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risida yig'ilgan ma'lumotlar faylining maqsadi mehnat jarayonida yuz bergan baxtsiz hodisalar qanday yuz bergani, jarohatlanishlar nimadan kelib chiqqani haqida ma'lumotlar yig'ish emas, balki yakuniy oqibatlar to'g'risida ma'lumot berishdir, shuning uchun strukturaviy shikastlanishlar yoki yakuniy xulosani keltirib chiqaradigan tabiiy hodisaning xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldiradi. Shuningdek, tahlil qilingan ma'lumotlar bazalarida og'ir oqibatli baxtsiz hodisalarga nisbatan hisobot berishning noto'g'riligi ham kuzatilish holatlari mavjud.

Shuningdek, Mehnat kodeksiga ko'ra, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalliklari natijasidagi zararni ikki xil ko'rinishda tahlil qilish mumkin. Ya'ni 329-moddaga asoslanib, ish beruvchi xodimning mehnat qilish qobiliyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum qilganligi sababli xodimga zararni qoplash majburiyati ham bo'lib, xodimning ushbu holat sababli olmagan oylik maoshini qoplab berishi shart.³ Bundan tashqari, Mehnat kodeksiga ko'ra, xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan ziyonni ish beruvchi tomonidan to'lab beradigan to'lov turiga xodimga bir martalik nafaqa to'lash, xodimga yo'qotilgan ish haqi uchun yetkazilgan ziyonni o'rini qoplash tarzida amalga oshiriladigan har oylik to'lovlar, xodimning qo'shimcha xarajatlarini kompensatsiya qilish.

Xususan, suv toshqini turi va suvga ta'sir qilish usullari haqida ma'lumot ko'pincha mavjud emas. Aslida, faqat cheklangan miqdordagi hodisalar uchun maksimal suv sathi yoki suv tezligi haqida xabar berilgan. Suv toshqini oqibatida texnologik asbob-uskunalarining konstruktiv shikastlanishiga kelsak, ko'p hollarda uskunaning shikastlanishiga ishora faqat umumiy ma'noda ifodalanadi. Bundan tashqari, saqlanishning yo'qolishi ba'zi hollarda oqish quvur liniyasidagi teshikdan yoki saqlash tankining qobig'idagi nosozlikdan kelib chiqqanligini ko'rsatmasdan xabar

³ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi

qilinadi. Binobarin, baxtsiz hodisalar dinamikasini tushunish va asbob-uskunalar tomonidan yetkazilgan zarar darajasini baholash juda qiyin.

Xulosa:Xulosa o‘rnida esa, dunyodagi ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar va mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanishi bosqichida nafaqat o‘zimizdagi mehnat sharoitlarini izchil o‘rgangan va yaxshilagan holda xodimlarga qulay mehnat sharoitlarini yaratish va sodir bo‘lish xavfi mavjud bo‘lgan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini oldini olish va ularga chora ko‘rish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda mehnat munosabatlarda bo‘lgan fuqarolarimizning hayot va sog‘lig‘ini himoyasini ta‘minlash borasidagi qonunchilikning ayrim jihatlarni takomillashtirish zarurati ham mavjuddir.

Bunda quyidagi holatga e‘tiborni qaratish lozim, ya‘ni O‘zbekiston aholisi orasida xorijda ishlash uchun borishga ishtiyoqmad fuqarolar juda ko‘p. Ular ko‘proq yaxshi daromad topish, yuqori ish haqlari olish va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadini ko‘zlashadi. Mamlakatimiz aholisi o‘rtasida mehnat migratsiya munosabatlarini tartibga solish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi davlat unitar korxonasi tashkil etilgan. Ushbu agentlikning nizomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilib tasdiqlangan.⁴ Shunindek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining mehnat migratsiya borasida bir qancha hujjatlari qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat qilayotgan fuqarolarimizning huquqlarini, ularning hayoti va sog‘lig‘ini himoyasini kuchaytirish borasidagi tegishli qonunlarni qabul qilish va shundan kelib chiqqan holda fuqarolik hamda mehnat qonunchiligini takomillashtirish kerak. Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha takliflar fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ining himoyasini kuchaytirish, yetkazilgan zarar o‘rnini qoplashning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org/kasbiy-kasalliklarni-va-ishlab-chiqarishdagi-jarohatlarni-teks.html>
2. О.Д.Рахимов, У.Иулдошев. “Мехнатни муҳофаза қилиш.” Ўзбекистан Республикаси Олий ва урта махсус таълим вазирлиги томонидан нашрга тавсия этилган. - Тошкент, 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
4. <https://lex.uz/ru/docs/-3811317>